

## SOG'LIQQA QARSHI JINOYATLAR HAMDA HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI



*Samandarov Ulug`bek Sanjar o`g`li  
IV Akademiyasi 3-o`quv kursi 315- guruh kursanti*

**Annotatsiya:** Aholi sog`lig`ini saqlash va sog`liqqa qarshi jinoyatlar hamda huquqbazarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorining sog`liqni saqlash organlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi ob`ektiv zaruriyatni tashkil etadi. Zero, sog`liqni saqlash organlarining bevosita ish faoliyatları fuqarolarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar tufayli yetkaziladigan zararli oqibatlarni bartaraf etish oldini olishda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

**Annotation:** It is objectively necessary for the prevention inspector to work in cooperation with the health authorities to protect the health of the population and prevent crimes and violations against health. After all, the direct work activities of health authorities are carried out in cooperation with the prevention inspector in preventing the harmful consequences of crimes committed against citizens.

**Kalit so`zlar:** Huquqbazarliklar profilaktikasi, sog`liqni saqlash, hamkorlik, alkogolizm, giyohvandlik, ruhiy kasalliklar, tanosil kasallikkari, ijtimoiy reabilitatsiya, sanitariya-gigiyena, OIV infeksiyasi, tan jarohati, tayanch-punkti, profilaktik hisob, spirtli ichimlik, epidemiologiya xizmati.

**Key words:** Prevention of crimes, health care, cooperation, alcoholism, drug addiction, mental diseases, venereal diseases, social rehabilitation, sanitation and hygiene, HIV infection, physical injury, base point, preventive account, alcohol, epidemiology service.

Aholi sog`lig`ini saqlash va sog`liqqa qarshi jinoyatlar hamda huquqbazarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorining sog`liqni saqlash organlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi ob`ektiv zaruriyatni tashkil etadi. Zero, sog`liqni saqlash organlarining bevosita ish faoliyatları fuqarolarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar tufayli yetkaziladigan zararli oqibatlarni bartaraf etish oldini olishda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Sog`liqni saqlash organlarining Ichki ishlar organlari tuzilmasiga kiruvchi Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatidagi vakolatlarini kengaytirish va yanada mustahkamlash maqsadida O`zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbazarliklar profilaktikasi to`g`risida”<sup>1</sup> gi qonunning 15-moddasida

**Davlat sog`liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog`liqni saqlash**

<sup>1</sup> “Huquqbazarliklar profilaktikasi to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni

## muassasalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari keltirilgan bo`lib unga ko`ra,

Davlat sog`liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog`liqni saqlash muassasalari huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etishda, fuqarolar sog`lig`ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi. Bundan tashqari fuqarolar sog`lig`ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi, aholi o`rtasida sanitariya-gigiyenaga oid bilimlarni tarqatish bo`yicha ishlarni, shuningdek sog`lom turmush tarzini targ`ib qilishni tashkil etadi, aholi o`rtasida muntazam tibbiy tekshiruvlarni tashkil etadi, alkogolizmga, giyohvandlikka, zaharvandlikka, ruhiy kasalliklarga, OIV infeksiyasiga, tanosil kasalliklariga va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklarga chalingan shaxslarni aniqlaydi, ularni hisobga olish, tekshiruvdan o`tkazish, shuningdek ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshiradi, OIV infeksiyasi, alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik tarqalishining oldini olishga doir chora-tadbirlarni bajarish uchun mutaxassislarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradi. Sog`liqni saqlash organlari odam savdosidan jabrlanganlarni belgilangan tartibda ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko`radi, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko`radi. Shu jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o`zaro hamkorlik qiladi.

Profilaktika inspektorlari bilan sog`liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni amalga oshiradi unga ko`ra:

xizmat hududida istiqomat qilib, uzoq muddatga xorijiy davlatlarga chiqqan va qaytib kelgan fuqarolarning OITS va boshqa xavfli yuqumli kasalliklarni orttirib olmaganligiga ishonch hosil qilish va ulardan bunday kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida, ushbu fuqarolarni hududiy sog`liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda tibbiy ko`rikdan o`tkazishning choralarini ko`radi. Bunday shaxslardan OITS va boshqa xavfli yuqumli kasalliklar aniqlangan taqdirda majburiy davolanishlarini ta`minlash choralarini ko`radi;

xizmat hududida aniq shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilga hollarda, fuqaroga yetkazilgan jarohatning og`irlik darajasini aniqlashni so`rab, hududiy tibbiyot muassasalariga sud-tibbiy ekspertiza tayinlash choralarini koradi;

muassasalarining iltimosnomalari mavjud bo`lganda, profilaktika inspektori mazkur toifadagi shaxslarni majburiy davolashga yuborish to`g`risidagi materiallarni yig`adi va tuman, shahar sudiga taqdim etadi. Profilaktika inspektori sudning majburiy

davol;ashga yuborish to`grisidagi qarori asosida shaxs o`n kun muddat ichida majburiy davolash uchun belgilagan tartibdagi tegishli davolash muassasasiga joylashtiradi;

tayanch punktda profilaktik hisobda turuvchi giyohvandlikka mubtalo bo`lganlar va spirtli ichimlikka ruju qo`yanlar haqidagi ma`lumotlarni har oy yakunida hududiy sog`liqni saqlash organlari narkologiya dispanseridagi hisoblar bilan solishtirib, belgilanga tartibda profilaktik hisoblarni yangilab boradi;

jinoyat, yo`l-transport hodisasi, yong`in va boshqa turli hodisalar sodir bo`lgan joyga yetib kelib, jarohat olgan fuqarolar borligini aniqlaganda, zudlik bilan tez tibbiy yordam xizmatiga xabar beradi, ular yetib kelguniga qadar fuqaroalrga birinchi tibbiy yordam ko`rsatadi.

sog`liqni saqlash organlari tizimidagi epidemiologiya xizmati bilan hamkorlikda hududda, jumladan jamoat joylari va ko`ngilochar joylarda, bozorlar va savdo rastalarida, ta`lim muassasalari va aholi turar joylarida sanitariya va gigiyena qoidalari, tozalik va obodonlasstirish talablariga rioya etilishini nazorat qiladi. Shu maqsadda, ular reja asosida va rejadan tashqari birgalikda qo`shma tekshiruvlar o`tkazadi hamda aniqlangan huquqbazarliklar bo`yicha tegishli choralar ko`radi.

Shunday ekan profilaktika inspektori aholi o`rtasida sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish, shuningdek yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida, hududiy sog`liqni saqlash muassasalari, mehnat jamoalari va aholi turar joylarida davra suhbatlari o`tkazadi, tegishli mavzularda ma`ruzalar o`qiydi, mahalliy ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qiladi. Shuningdek fuqarolarning hayoti va sog`lig`iga qarshi qaratilgan jinoyat va ma`muriy huquqbazarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergen sharoitlarni aniqlash hamda bartarf etish choralarini ko`rishda sog`liqni saqlash organlari bilan keng hamkorlikda faoliyat olib boradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

O`zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to`g`risida” gi O`RQ 407 son qonuni

O`zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbazarliklar profillaktikasi to`g`risida” gi O`RQ 371 son qonuni

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda qabul qilingan PF 6196 son farmoni

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-aprelda qabul qilingan PQ 5050 son qarori

<http://lex.uz>